



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№7

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

7-jild
7-son
Iyul, 2026

July, 2026
Volume 7
Number 7

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Moliya, kredit va investitsiya
Finance, credit and investment
Финансы, кредит и инвестиции



TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI KAMAYTIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdurazakova Nasiba Sultanovna

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ СНИЖЕНИЯ РИСКОВ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ СТАБИЛЬНОСТИ ПРИ ПРОЕКТНОМ ФИНАНСИРОВАНИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Абдуразакова Насиба Султановна

IMPROVING MECHANISMS FOR REDUCING RISKS AND ENSURING FINANCIAL STABILITY IN PROJECT FINANCING OF INVESTMENT PROJECTS IN COMMERCIAL BANKS

Abdurazakova Nasiba Sultanovna

Received: July 1, 2026 Revised: July 6, 2026 Accepted: July 9, 2026 Published: August 1, 2026

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishda risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda loyiha tashabbuskorining investitsiya loyihasi qiymatida kamida 25 foiz o'z mablag'lari bilan ishtirok etishini ta'minlash, shartnoma qiymatining kamida 15 foizini mijoz tomonidan moliyalashtirish, kredit mablag'laridan maqsadli foydalanishni kafolatlovchi hujjatli to'lov mexanizmini joriy etish hamda tijorat banklari resurslari tarkibida uzoq muddatli moliyaviy resurslar ulushini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Shuningdek, mazkur mexanizmlarning kredit risklarini kamaytirish, loyiha tashabbuskorining moliyaviy javobgarligini kuchaytirish, bank resurs bazasining barqarorligini ta'minlash va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Loyihaviy moliyalashtirish, investitsiya loyihasi, tijorat banklari, kredit riski, moliyaviy barqarorlik, loyiha tashabbuskori, hujjatli to'lov, uzoq muddatli resurslar, investitsion kreditlar, project finance.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы снижения рисков и совершенствования механизмов обеспечения финансовой стабильности при проектном финансировании инвестиционных проектов в коммерческих банках. Исследование охватывает теоретические и практические аспекты обеспечения участия инициатора проекта в финансировании инвестиционного проекта собственными средствами в размере не менее 25 процентов, финансирования клиентом не менее 15 процентов стоимости контракта, внедрения документарного платежного механизма, гарантирующего целевое использование заемных средств, и увеличения доли долгосрочных финансовых ресурсов в ресурсах коммерческих банков. Обосновывается также важность этих механизмов в снижении кредитных рисков, укреплении финансовой ответственности инициатора проекта, обеспечении стабильности ресурсной базы банка и повышении эффективности финансирования инвестиционных проектов. По результатам исследования разработаны научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию системы проектного финансирования в коммерческих банках.



Ключевые слова: Проектное финансирование, инвестиционный проект, коммерческие банки, кредитный риск, финансовая стабильность, инициатор проекта, документарный платеж, долгосрочные ресурсы, инвестиционные кредиты, проектное финансирование.

■ KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan geosiyosiy beqarorlik, moliya bozorlaridagi yuqori noaniqlik, inflyatsion bosim hamda uzoq muddatli kapital resurslari taqchilligi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini shakllantirishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Yirik infratuzilma, energetika, transport, sanoat va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda loyiha moliyalashtirish (project finance) mexanizmi xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan bo'lib, uning asosiy afzalligi loyiha tomonidan yaratiladigan pul oqimlarini kreditni qaytarishning asosiy manbai sifatida qabul qilishi hamda risklarni loyiha ishtirokchilari o'rtasida oqilona taqsimlash imkonini berishidir.

Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) hamda Osiyo taraqqiyot banki (ADB) tomonidan e'lon qilinayotgan tahliliy hisobotlarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklari ishtirokini kengaytirish, uzoq muddatli moliyaviy resurslar bazasini mustahkamlash hamda loyiha risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi ustuvor omillardan biri sifatida baholanmoqda. Shu bilan birga, global iqtisodiyotda investitsiya oqimlarining beqarorlashuvi, moliyalashtirish qiymatining ortishi va kredit risklarining kuchayishi loyiha moliyalashtirish tizimiga yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda.[1]

O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash, xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish va tijorat banklarining investitsiya jarayonlaridagi rolini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq tijorat banklarida investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirish amaliyotida loyiha tashabbuskorining moliyaviy javobgarligi, kredit mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazorat, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari yetarliligi hamda moliyaviy risklarni boshqarish bilan bog'liq qator muammolar saqlanib qolmoqda. Mazkur holat loyiha moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.[2]

Mazkur maqolaning maqsadi tijorat banklarida investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishda risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish hamda amaliy tavsiyalarni asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida loyiha tashabbuskorining investitsiyadagi moliyaviy ishtiroki, kredit mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlovchi hujjatli to'lov mexanizmi hamda tijorat banklari resurs bazasining muddat tuzilmasini takomillashtirish masalalari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinadi.[3]

■ ADABIYOTLAR SHARHI

Loyihaviy moliyalashtirish (project finance) investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning mustaqil shakli sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon moliya amaliyotida keng qo'llanila boshladi. Bugungi kunda mazkur mexanizm energetika, transport, telekommunikatsiya, neft-gaz sanoati, qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda davlat-xususiy sheriklik asosidagi infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda eng samarali vositalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, asosan, loyiha moliyalashtirishning iqtisodiy mohiyati, moliyalashtirish manbalari, loyiha risklarini boshqarish, investitsiya samaradorligini baholash va banklarning loyiha moliyalashtirishdagi ishtirokini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan.[1]

Loyiha moliyalashtirish nazariyasining rivojlanishiga E.R. Yescombe salmoqli hissa qo'shgan. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, loyiha moliyalashtirishning asosiy farqlovchi jihati kreditning qaytarilish manbai sifatida qarz oluvchining umumiy moliyaviy holati emas, balki loyiha tomonidan shakllantiriladigan kelajak pul oqimlari e'tirof etilishidir. Mazkur yondashuv yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda risklarni loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash hamda bank kapitalidan samarali foydalanish imkonini yaratadi.[3]

R.A. Brealey, S.C. Myers va F. Allen investitsiya loyihalarining moliyaviy samaradorligini baholashda sof joriy qiymat (**NPV**), ichki daromadlilik me'yori (**IRR**), foydalilik indeksi (**PI**) va diskontlangan pul oqimlari usullarini asosiy mezon sifatida e'tirof etadilar. Ularning fikricha, investitsiya qarorlarining sifati kelgusidagi pul oqimlarini aniq prognozlash hamda loyiha risklarini kapital qiymati bilan uzviy bog'liq holda baholashga bevosita bog'liq.[4]

I.A. Nikonova loyiha moliyalashtirish mexanizmini banklar, investorlar va boshqa loyiha ishtirokchilari manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi moliyaviy tizim sifatida tavsiflaydi. Muallifning ta'kidlashicha, loyiha risklarini faqat bank zimmasiga yuklash loyiha samaradorligini pasaytiradi, shu sababli risklar har bir ishtirokchining ularni boshqarish imkoniyatidan kelib chiqib taqsimlanishi lozim.[5]

Yuqoridagi ilmiy qarashlar loyiha moliyalashtirishning fundamental nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etsa-da, ular asosan loyiha pul oqimlari va investitsiya samaradorligini baholashga qaratilgan. Biroq tijorat banklari nuqtai nazaridan loyiha tashabbuskorining minimal moliyaviy ishtiroki, kredit mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlovchi nazorat mexanizmlari hamda bank resurs bazasi tarkibining loyiha risklariga ta'siri kompleks yondashuv asosida yetarli darajada tadqiq etilmagan.

■ TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishda risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash



mexanizmlarini takomillashtirishga oid nazariy va amaliy masalalarni o'rganishda umumilmiy hamda maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini loyiha moliyalashtirish, investitsiyalarni moliyalashtirish, bank risklarini boshqarish, korporativ moliya va aktiv-passivlarni boshqarish yo'nalishlarida olib borilgan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Shuningdek, tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari, Markaziy bank me'yoriy hujjatlari, tijorat banklari faoliyatiga oid statistik ma'lumotlar hamda xalqaro moliya institutlarining tahliliy hisobotlaridan foydalanildi.[6]

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash usuli orqali loyiha moliyalashtirish tizimining nazariy asoslari umumlashtirildi hamda risklarni boshqarishning konseptual yondashuvlari tizimlashtirildi. Tahlil va sintez usullari yordamida tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyoti, loyiha tashabbuskorining moliyaviy ishtiroki, kredit mablag'laridan foydalanish mexanizmlari va bank resurs bazasining tarkibi o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.

Qiyosiy tahlil usuli asosida loyiha moliyalashtirish bo'yicha xorijiy tajriba va O'zbekiston tijorat banklari amaliyoti taqqoslandi hamda ularning o'ziga xos jihatlari aniqlandi. Mazkur usul orqali loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari ulushi, hujjatli to'lov (Documentary Payment) mexanizmi hamda uzoq muddatli resurslarni shakllantirish bo'yicha mavjud yondashuvlarning afzallik va kamchiliklari baholandi.

Iqtisodiy-statistik tahlil usuli yordamida tijorat banklarining loyiha moliyalashtirish amaliyotiga oid ko'rsatkichlari tahlil qilinib, ilmiy takliflarning amaliy samaradorligi baholandi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida loyiha tashabbuskorining moliyaviy ishtiroki, kredit mablag'laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilish va uzoq muddatli resurs bazasini rivojlantirish o'zaro bog'liq elementlardan iborat yagona mexanizm sifatida ko'rib chiqildi.

Tadqiqot natijasida loyiha tashabbuskorining minimal moliyaviy ishtiroki, hujjatli to'lov mexanizmi va banklarning uzoq muddatli resurs bazasini integratsiyalash orqali loyiha moliyalashtirish risklarini kamaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

Loyiha tashabbuskorining minimal moliyaviy ishtiroki orqali kredit risklarini kamaytirish mexanizmini takomillashtirish

Tahlil: Loyihaviy moliyalashtirish amaliyotida kredit risklarini kamaytirishning muhim shartlaridan biri loyiha tashabbuskorining moliyaviy javobgarligini ta'minlash hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyoti shuni ko'rsatadiki, investorning loyiha qiymatidagi o'z mablag'lari ulushi qancha yuqori bo'lsa, uning loyiha muvaffaqiyatidan manfaatdorligi ham shuncha ortadi. Natijada loyiha mablag'laridan maqsadli foydalanish, qurilish-montaj ishlarining o'z vaqtida bajarilishi hamda kredit mablag'larining qaytarilish ehtimoli oshadi.

Olib borilgan tadqiqotlar va "Asakabank" AJ amaliyoti tahlili shuni ko'rsatdiki, loyiha

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

tashabbuskorining investitsiya loyihasi qiymatida kamida 25 foiz o'z mablag'lari bilan ishtirok etishi hamda shartnoma qiymatining kamida 15 foizini mijoz tomonidan moliyalashtirish mexanizmini joriy etish bank zimmasidagi kredit tavakkalchiligini kamaytirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv loyiha ishtirokchilarining moliyaviy mas'uliyatini oshirish bilan bir qatorda investitsiya loyihalarining amalga oshirilishida moliyaviy intizomni kuchaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari ulushi yetarli bo'lmagan hollarda bank mablag'lariga qaramlik ortadi, bu esa loyiha amalga oshirilishining dastlabki bosqichlaridayoq moliyaviy risklarning kuchayishiga olib keladi. Aksincha, tashabbuskorning o'z kapitali loyihaga jalb etilganda, u mablag'lardan samarali foydalanish va loyiha natijalariga erishishdan bevosita manfaatdor bo'ladi. Natijada bank va investor manfaatlari uyg'unlashib, agentlik xarajatlari hamda axborot asimmetriyasi bilan bog'liq xavflar kamayadi.

Shuningdek, shartnoma qiymatining kamida 15 foizini mijoz tomonidan moliyalashtirish talabi pudratchi tashkilotlarning moliyaviy intizomini mustahkamlaydi, bajariladigan ishlar sifatini oshiradi va bank tomonidan ajratilgan kredit mablag'larining maqsadsiz sarflanishi ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu esa loyiha bo'yicha pul oqimlarining barqaror shakllanishiga hamda kreditning o'z vaqtida qaytarilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishda loyiha tashabbuskorining investitsiya qiymatida kamida 25 foiz o'z mablag'lari bilan ishtirok etishi hamda shartnoma qiymatining kamida 15 foizini mijoz tomonidan moliyalashtirish mexanizmi kredit risklarini kamaytiruvchi integrallashgan moliyaviy javobgarlik mexanizmi sifatida ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur yondashuv bank va investor manfaatlarini uyg'unlashtirish, loyiha ishtirokchilarining moliyaviy intizomini kuchaytirish hamda investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini oshirish imkonini beradi.

Amaliy natija: Taklif etilgan mexanizmning "Asakabank" AJ faoliyatiga joriy etilishi natijasida loyiha tashabbuskorlarining moliyaviy javobgarligi kuchaydi, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kredit mablag'laridan oqilona foydalanish ta'minlandi hamda bank zimmasidagi kredit tavakkalchiligi kamaytirildi. Mazkur yondashuv bank kredit portfelining sifatini yaxshilash, investitsiya loyihalarining amalga oshirilish samaradorligini oshirish va bank resurslaridan foydalanish natijadorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, loyiha tashabbuskorining minimal moliyaviy ishtirokini belgilash va shartnoma bo'yicha avans to'lovini joriy etish loyiha moliyalashtirishning alohida elementlari emas, balki yagona integrallashgan risklarni boshqarish mexanizmining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Mazkur mexanizm bank va investor manfaatlarini uyg'unligini ta'minlash orqali kredit risklarini kamaytiradi, loyiha moliyaviy barqarorligini oshiradi hamda investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.



Tijorat banklarida loyiha tashabbuskorining moliyaviy ishtirokini kuchaytirish orqali kredit risklarini kamaytirish mexanizmini takomillashtirish

Loyihaviy moliyalashtirish tizimining samaradorligi ko'p jihatdan loyiha tashabbuskorining moliyaviy javobgarlik darajasiga bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari ulushi past bo'lgan investitsiya loyihalarida asosiy moliyaviy tavakkalchilik tijorat banklari zimmasiga yuklanadi. Natijada loyiha bo'yicha yuzaga keladigan salbiy moliyaviy oqibatlar, jumladan, loyiha qiymatining oshishi, pul oqimlarining rejalashtirilgan darajada shakllanmasligi hamda kreditni qaytarish muddatlarining buzilishi bank kredit portfelining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Loyiha moliyalashtirish bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili investorning loyihadagi moliyaviy ishtiroki risklarni kamaytirishda muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi. Biroq mavjud ilmiy yondashuvlarda loyiha tashabbuskorining minimal moliyaviy ishtiroki bo'yicha yagona ilmiy asoslangan mezon ishlab chiqilmagan. Shuningdek, loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari ulushini shartnoma majburiyatlarini bajarish bilan bog'lovchi mexanizmlar ham yetarli darajada yoritilmagan.

Shu sababli, muallif tomonidan investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishda loyiha tashabbuskorining loyiha qiymatida kamida 25 foiz o'z mablag'lari bilan ishtirok etishi, shuningdek, qurilish-pudrat shartnomasi qiymatining kamida 15 foizini buyurtmachi tomonidan oldindan moliyalashtirish mexanizmi taklif etiladi. Mazkur yondashuv loyiha tashabbuskorining moliyaviy mas'uliyatini kuchaytirish, bank zimmasidagi kredit tavakkalchiligini kamaytirish hamda loyiha ishtirokchilari manfaatlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu taklif "Asakabank" AJ faoliyatiga joriy etilgan bo'lib, amaliyotda qo'llash uchun tavsiya etilgan.

Muallifning fikricha, loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari ulushi nafaqat moliyalashtirish manbai, balki uning loyiha natijalari uchun javobgarligini ifodalovchi iqtisodiy indikator sifatida ham qaralishi lozim. Investorning shaxsiy kapitali loyihaga jalb etilishi mablag'lardan maqsadli foydalanish, qurilish ishlari sifatini nazorat qilish hamda loyiha muddatlariga rioya etish bo'yicha manfaatdorligini oshiradi. Shu bilan birga, shartnoma qiymatining ma'lum qismini buyurtmachi tomonidan oldindan moliyalashtirish pudratchi tashkilotning shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishiga qo'shimcha rag'bat yaratadi.

Taklif etilgan mexanizmni tushuntirish maqsadida shartli iqtisodiy modeldan foydalanish mumkin. Faraz qilaylik, investitsiya loyihasining umumiy qiymati 100 mlrd so'mni tashkil etadi. Muallif taklifiga ko'ra, shundan 25 mlrd so'm loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari, 75 mlrd so'm esa tijorat banki krediti hisobidan moliyalashtiriladi. Bundan tashqari, qurilish-pudrat shartnomasi qiymatining kamida 15 foizi buyurtmachi tomonidan avans sifatida moliyalashtiriladi. Bunday yondashuv bank kreditiga bo'lgan qaramlikni kamaytirish, loyiha ishtirokchilarining moliyaviy intizomini kuchaytirish va

kredit mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni yaxshilash imkonini beradi.

Muallifning ilmiy xulosasi: Loyiha tashabbuskorining minimal moliyaviy ishtiroki va shartnoma qiymati bo'yicha avans to'lovini joriy etish investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning alohida shartlari emas, balki tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirish risklarini boshqarishning integrallashgan mexanizmining tarkibiy elementlari hisoblanadi. Mazkur yondashuv bank va investor manfaatlari muvozanatini ta'minlash orqali kredit risklarini kamaytirish hamda investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muallif tomonidan taklif etilgan mexanizmning iqtisodiy mohiyati va amaliy ahamiyati

Loyihaviy moliyalashtirish amaliyotida investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi loyiha ishtirokchilari o'rtasida moliyaviy javobgarlikning oqilona taqsimlanishiga bevosita bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, loyiha tashabbuskorining loyihadagi moliyaviy ishtiroki past bo'lgan hollarda bank kredit mablag'lariga qaramlik ortadi, natijada loyiha bo'yicha asosiy moliyaviy tavakkalchilik bank zimmasiga yuklanadi. Bunday holat kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini pasaytirishi, kredit portfeli sifati yomonlashishiga hamda investitsiya loyihalarining amalga oshirilish muddatlari uzayishiga olib kelishi mumkin.


Muallifning fikricha, loyiha tashabbuskorining moliyaviy javobgarligini kuchaytirish kredit ta'minotini oshirish orqali emas, balki uning loyihadagi bevosita moliyaviy ishtirokini belgilash orqali ta'minlanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, loyiha qiymatining kamida 25 foizini loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari, qurilish-pudrat shartnomasi qiymatining kamida 15 foizini buyurtmachi tomonidan avans tariqasida moliyalashtirish mexanizmi taklif etiladi. Mazkur yondashuv bank, investor va pudratchi manfaatlarini o'zaro uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu taklif amaliyotga joriy etilgan.

Taklif etilgan mexanizmning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari loyihaga jalb etilishi uning moliyaviy javobgarligini oshiradi, buyurtmachi tomonidan avans mablag'larining ajratilishi esa pudratchining shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishiga qo'shimcha rag'bat yaratadi. Natijada loyiha ishtirokchilari o'rtasida moliyaviy mas'uliyat muvozanati shakllanadi hamda bank tomonidan ajratilgan kredit mablag'laridan maqsadli foydalanish uchun qulay sharoit yuzaga keladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, taklif etilayotgan mexanizmning afzalligi alohida elementlarda emas, balki ularning o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladi. Ya'ni loyiha tashabbuskorining minimal moliyaviy ishtiroki, buyurtmachining avans to'lovi, keyingi bosqichlarda hujjatli to'lov (Documentary Payment) mexanizmi va uzoq muddatli resurslar bazasini mustahkamlash bo'yicha takliflar birgalikda qo'llanilgandagina loyiha moliyalashtirish risklarini sezilarli darajada kamaytiruvchi integrallashgan tizimni hosil qiladi.



1-rasm. Muallif tomonidan taklif etilgan loyihaviy moliyalashtirishda risklarni boshqarishning integrallashgan mexanizmi.



Manba: Muallif ishlanmasi.

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1- rasmda keltirilgan model shuni ko'rsatadiki, risklarni kamaytirish alohida bir omil hisobiga emas, balki loyiha ishtirokchilarining moliyaviy javobgarligi, kredit mablag'laridan foydalanish ustidan nazorat va bankning moliyalashtirish siyosati o'zaro uyg'unlashgan holda amalga oshirilgandagina yuqori natija beradi. Shu jihatdan taklif etilayotgan mexanizm an'anaviy loyiha moliyalashtirish yondashuvlaridan farq qiladi.

Loyiha moliyalashtirish tizimida risklarni boshqarishning mavjud yondashuvlari asosan garov ta'minoti, pul oqimlarini prognozlash va qarz oluvchining kreditga layoqatligini baholashga asoslangan. Mazkur yondashuvlar kredit risklarini baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, loyiha ishtirokchilari o'rtasida moliyaviy javobgarlikni taqsimlashning kompleks mexanizmini to'liq aks ettirmaydi.

Muallifning fikricha, loyiha moliyalashtirishda risklarni kamaytirishning asosiy sharti kredit miqdorini cheklash emas, balki loyiha ishtirokchilarining moliyaviy manfaatlarini o'zaro uyg'unlashtirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, loyiha tashabbuskorining kamida 25 foiz o'z mablag'lari bilan ishtirok etishi, buyurtmachi tomonidan 15 foizlik avans to'lovi amalga oshirilishi hamda keyingi bosqichlarda kredit mablag'larining hujjatlar asosida ajratilishi yagona mexanizm sifatida qaraladi.

Mazkur mexanizmning iqtisodiy mohiyati shundaki, loyiha tashabbuskori o'z mablag'larini loyihaga jalb qilishi orqali loyiha natijalari uchun bevosita moliyaviy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Buyurtmachi tomonidan avans mablag'larining ajratilishi pudratchining shartnoma majburiyatlarini

bajarish bo'yicha mas'uliyatini oshiradi. Tijorat banki esa kredit mablag'larini bosqichma-bosqich va hujjatlar asosida moliyalashtirish orqali mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlaydi. Natijada loyiha ishtirokchilarining manfaatlari muvozanatlashadi va kredit riski sezilarli darajada kamayadi.

Taklif etilgan yondashuvning yana bir muhim jihati shundaki, u risklarni faqat bank zimmasiga yuklamaydi. Aksincha, risklar loyiha ishtirokchilari o'rtasida ularning iqtisodiy manfaatlari va javobgarlik darajasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Bu esa loyiha moliyalashtirishning xalqaro tamoyillariga ham mos keladi.

“Asakabank” AJ faoliyatida mazkur yondashuvni amaliyotga joriy etish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar loyiha tashabbuskorlarining moliyaviy intizomini kuchaytirish, kredit mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni takomillashtirish hamda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosaga kelindi:

-Loyiha tashabbuskorining minimal moliyaviy ishtiroki, buyurtmachi avans to'lovi va kredit mablag'larining hujjatlar asosida moliyalashtirilishi alohida risklarni boshqarish vositalari emas, balki tijorat banklarida loyiha moliyalashtirishning integrallashgan risklarni boshqarish mexanizmining o'zaro bog'liq elementlari hisoblanadi.

-Mazkur yondashuv investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank va investor manfaatlari muvozanatini ta'minlash, kredit portfeli sifatini



yaxshilash hamda moliyaviy barqarorlikni oshirish imkonini beradi.

O'zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish jarayonida tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi roli tobora ortib bormoqda. So'nggi yillarda investitsiya dasturlarini moliyalashtirish, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish hamda infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan uzoq muddatli kreditlar hajmi sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, loyiha moliyalashtirish amaliyotida risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Markaziy bank va tijorat banklarining ochiq ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda asosiy e'tibor loyiha iqtisodiy samaradorligini baholash, garov ta'minoti va qarz oluvchining moliyaviy holatini tahlil qilishga qaratilgan. Biroq loyiha tashabbuskorining moliyaviy javobgarligi, kredit mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazorat hamda uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish bo'yicha yagona integrallashgan mexanizm amaliyotda to'liq shakllanmagan.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoatni rivojlantirish va hududlarda investitsion faollikni oshirishda tijorat

banklari muhim moliyaviy vositachi sifatida faol ishtirok etmoqda. So'nggi yillarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hajmining ortishi bank kredit portfelining o'sishida ham o'z aksini topmoqda. Markaziy bankning ochiq statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-yanvar holatida tijorat banklarining jami kredit portfeli 533,1 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko'rsatkich 604,0 trln so'mga yetib, 13 foizga oshgan. Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi esa 355,6 trln so'mdan 383,7 trln so'mga ko'paygan. Bu investitsiya loyihalarini moliyalashtirish ko'lamini kengayib borayotganini tasdiqlaydi.

Kreditlash hajmining o'sishi bilan bir qatorda loyiha moliyalashtirish risklarini boshqarish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Amaldagi amaliyotda banklar kredit ajratish jarayonida qarz oluvchining moliyaviy holati, garov ta'minoti va loyiha samaradorligini baholashga asosiy e'tibor qaratmoqda. Biroq loyihani amalga oshirishning keyingi bosqichlarida loyiha tashabbuskorining moliyaviy javobgarligi, kredit mablag'laridan maqsadli foydalanish monitoringi hamda loyiha ishtirokchilari o'rtasida risklarni taqsimlash bo'yicha yagona kompleks mexanizmning mavjud emasligi ayrim hollarda loyiha risklarining ortishiga sabab bolmoqda.

1-jadval

O'zbekiston tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyotida aniqlangan asosiy muammolar

Aniqlangan muammo	Loyiha moliyalashtirishga ta'siri
Loyiha tashabbuskorining minimal moliyaviy ishtiroki bo'yicha yagona mezon mavjud emas	Kredit riski oshadi
Kredit mablag'laridan foydalanish monitoringi yetarli darajada tizimlashtirilmagan	Mablag'lardan maqsadsiz foydalanish ehtimoli ortadi
Risklar loyiha ishtirokchilari o'rtasida mutanosib taqsimlanmagan	Bank zimmasidagi tavakkalchilik kuchayadi

Manba: Muallif tomonidan Markaziy bankning ochiq statistik ma'lumotlari va tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.

1-jadval ma'lumotlari loyiha moliyalashtirish amaliyotidagi muammolar bir-biri bilan o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Xususan, loyiha tashabbuskorining minimal moliyaviy ishtiroki bo'yicha yagona mezonning mavjud emasligi bank zimmasidagi kredit tavakkalchiligidan ortishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, kredit mablag'laridan foydalanish monitoringining barcha bosqichlarda bir xil darajada tashkil etilmaganligi investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida mablag'larning maqsadsiz sarflanishi xavfini oshirmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, loyiha moliyalashtirish tizimida mavjud muammolar alohida emas, balki o'zaro bog'langan tizimli xususiyatga ega. Shu bois ularni bartaraf etishda ham kompleks yondashuv zarur.

Investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirish jarayonida uchraydigan muhim muammolardan biri ajratilgan kredit mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan nazoratning yetarli darajada tashkil etilmaganligidir. Amaliyotda ayrim hollarda kredit mablag'lari loyiha doirasida

nazarda tutilmagan maqsadlarga yo'naltirilishi, pudrat ishlari hajmi bilan moliyalashtirish bosqichlari o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelishi hamda bu holatlar loyiha qiymatining oshishiga va kredit riskining ortishiga olib kelishi mumkin.

Loyiha moliyalashtirishning xalqaro amaliyotida bunday risklarni kamaytirish uchun moliyalashtirishning bosqichma-bosqich nazorat qilinadigan mexanizmlaridan foydalaniladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, kredit mablag'lari loyiha bo'yicha bajarilgan ishlar, taqdim etilgan hujjatlar va shartnoma majburiyatlarining bajarilganligi tasdiqlangandan keyingina ajratiladi. Bunday mexanizm mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlash, loyiha ishtirokchilari o'rtasida moliyaviy intizomni kuchaytirish hamda bank zimmasidagi kredit tavakkalchiligini kamaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston tijorat banklari amaliyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, kredit mablag'larini monitoring qilish bo'yicha alohida tartiblar mavjud bo'lsa-da, ularni loyiha moliyalashtirishning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi yagona mexanizm sifatida qo'llash amaliyoti yetarli darajada shakllanmagan. Natijada kredit

mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholash va monitoring qilishda ayrim kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida muallif tomonidan Documentary Payment mexanizmini loyiha moliyalashtirish tizimiga joriy etish taklif etiladi. Ushbu mexanizmga ko'ra, tijorat banki kredit mablag'larini to'g'ridan-to'g'ri loyiha tashabbuskoriga o'tkazmaydi. Mablag'lar faqat loyiha bo'yicha bajarilgan ishlar, yetkazib berilgan uskunalar yoki ko'rsatilgan xizmatlarni tasdiqlovchi hujjatlar bank tomonidan tekshirilgandan so'ng pudratchi yoki yetkazib

beruvchining hisob raqamiga o'tkaziladi. Mazkur yondashuv kredit mablag'larining maqsadsiz sarflanish ehtimolini kamaytirish bilan bir qatorda loyiha ishtirokchilari o'rtasida moliyaviy intizomni mustahkamlaydi.

“Asakabank” AJ faoliyatida ushbu mexanizmni qo'llash bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar loyiha moliyalashtirish amaliyotiga joriy etilgan bo'lib, ular kredit mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish va loyiha risklarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

2-jadval

Documentary Payment mexanizmining an'anaviy moliyalashtirishdan ustunliklari

Mezoni	An'anaviy moliyalashtirish	Documentary Payment mexanizmi
Kredit mablag'larini o'tkazish	Bir yo'la yoki bosqichma-bosqich	Faqat tasdiqlovchi hujjatlar asosida
Bank nazorati	Cheklangan	Har bir bosqichda amalga oshiriladi
Mablag'dan maqsadsiz foydalanish xavfi	Nisbatan yuqori	Past
Pudratchining javobgarligi	O'rtacha	Yuqori
Kredit riski	Yuqori	Kamayadi


Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Documentary Payment mexanizmi kredit mablag'larining harakatini loyiha bo'yicha bajarilgan ishlar va tasdiqlovchi hujjatlar bilan bevosita bog'laydi. Natijada tijorat banki kredit mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, loyiha ishtirokchilarining moliyaviy intizomi kuchayadi hamda kredit tavakkalchiligi kamayadi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishda kredit mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlash maqsadida Documentary Payment mexanizmini tijorat banklari amaliyotiga integratsiyalash bo'yicha ilmiy asoslangan tashkiliy-iqtisodiy yondashuv ishlab chiqildi. Taklif etilgan

mexanizm kredit mablag'larining faqat tasdiqlangan hujjatlar asosida moliyalashtirilishini ta'minlash orqali bank risklarini kamaytirish va loyiha moliyalashtirish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Muallifning ilmiy xulosasi: Documentary Payment mexanizmi alohida nazorat instrumenti sifatida emas, balki loyiha tashabbuskorining moliyaviy ishtiroki va bank monitoringi bilan o'zaro bog'langan integrallashgan risklarni boshqarish mexanizmining muhim elementi hisoblanadi. Mazkur mexanizmning joriy etilishi kredit mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlash, loyiha ishtirokchilari javobgarligini oshirish hamda tijorat banklarining loyiha moliyalashtirishdagi moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.



2-rasm. Dokumentary Payment mexanizmi qo'llash algoritmi.



Amaliy ssenariy: Taklif etilgan mexanizmning amaliy ishlash tartibini quyidagi shartli misolda ko'rish mumkin.

Faraz qilaylik, investitsiya loyihasi doirasida qiymati 80 mlrd so'm bo'lgan texnologik uskuna xarid qilinmoqda.

An'anaviy amaliyotda tijorat banki kredit mablag'larini loyiha tashabbuskorining hisob raqamiga o'tkazadi. Natijada mablag'larning boshqa maqsadlarga yo'naltirilishi yoki to'lovlarning kechikishi ehtimoli yuzaga kelishi mumkin.

Muallif taklif etayotgan Documentary Payment mexanizmida esa to'lov quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- yetkazib beruvchi uskunani yetkazib beradi;
- qabul qilish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi;
- hisob-faktura va boshqa tasdiqlovchi hujjatlar bankka taqdim etiladi;
- bank hujjatlarni tekshiradi;
- hujjatlar tasdiqlangach, mablag' to'g'ridan-to'g'ri yetkazib beruvchining hisob raqamiga o'tkaziladi.

Mazkur tartib kredit mablag'larining maqsadsiz ishlatilish ehtimolini kamaytiradi hamda bank tomonidan moliyalashtirish jarayonining shaffofligini oshiradi.

Muallifning fikricha, Documentary Payment mexanizmi tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda oddiy hisob-kitob shakli emas, balki kredit mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlovchi va loyiha ishtirokchilari o'rtasida moliyaviy javobgarlikni kuchaytiruvchi risklarni boshqarish instrumenti hisoblanadi. Mazkur mexanizmni loyiha tashabbuskorining minimal moliyaviy ishtiroki hamda uzoq muddatli resurslarni boshqarish bo'yicha takliflar bilan uyg'un holda qo'llash tijorat banklarining loyiha moliyalashtirish amaliyotida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash orqali loyiha moliyalashtirish barqarorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish

Loyihaviy moliyalashtirishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat investitsiya loyihasining iqtisodiy samaradorligiga, balki uni moliyalashtirayotgan tijorat bankining resurs bazasi barqarorligiga ham bevosita bog'liq. Investitsiya loyihalari, odatda, uzoq

muddatli xarakterga ega bo'lganligi sababli, ularni qisqa muddatli resurslar hisobidan moliyalashtirish aktiv va passivlar muddatlari o'rtasida nomuvofiqlikni yuzaga keltiradi. Natijada banklarning likvidlik riski hamda qayta moliyalashtirish riski ortadi.

Xalqaro bank amaliyotida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda aktiv va passivlar muddatlarining muvofiqligini ta'minlash (Asset-Liability Management) bank moliyaviy barqarorligining muhim shartlaridan biri sifatida qaraladi. Shu sababli tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini kengaytirish loyiha moliyalashtirish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, investitsiya loyihalarini barqaror moliyalashtirish uchun bank resurslari tarkibida uzoq muddatli mablag'lar ulushi yetarli darajada shakllantirilishi zarur. Resurs bazasida qisqa muddatli mablag'larning ustunligi uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda likvidlik xavfini kuchaytiradi hamda bankning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida muallif tomonidan tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb qilinadigan resurslar tarkibida uch yildan ortiq muddatli resurslar ulushini kamida 55 foiz etib belgilash taklif etiladi. Ushbu yondashuv bank aktivlari va majburiyatlari muddatlari o'rtasidagi muvofiqlikni yaxshilash, qayta moliyalashtirish riskini kamaytirish hamda uzoq muddatli investitsiya loyihalarini barqaror moliyalashtirish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan mexanizmga ko'ra, uzoq muddatli resurslar ulushi quyidagi manbalar hisobidan oshirilishi mumkin:

- uzoq muddatli depozitlar;
- xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari;
- xalqaro kapital bozorlaridan jalb qilinadigan mablag'lar;
- bank obligatsiyalari;
- subordinatsiyalangan qarz mablag'lari.

Mazkur manbalarni diversifikatsiya qilish bank resurs bazasining barqarorligini oshirish bilan bir qatorda investitsiya loyihalarini uzluksiz moliyalashtirish imkonini ham kengaytiradi.

3-jadval.

Uzoq muddatli resurslar ulushining loyiha moliyalashtirish barqarorligiga ta'siri

Resurslar tarkibida uzoq muddatli mablag'lar ulushi	Likvidlik riski	Qayta moliyalashtirish riski	Loyiha moliyalashtirish barqarorligi
30 % gacha	Yuqori	Yuqori	Past
30–45 %	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha
45–55 %	Past	Past	Yaxshi
55 % va undan yuqori	Minimal	Minimal	Yuqori

3-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, bank resurslari tarkibida uzoq muddatli mablag'lar ulushi ortib borishi bilan likvidlik va qayta moliyalashtirish risklari bosqichma-bosqich kamayadi. Ayniqsa, uzoq muddatli

resurslar ulushi 55 foiz va undan yuqori bo'lgan sharoitda bankning uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyati sezilarli darajada yaxshilanadi. Natijada aktiv va passivlar muddatlari



o'rtasidagi nomuvofiqlik qisqaradi hamda loyiha moliyalashtirishning uzluksizligi ta'minlanadi.

Ilmiy yangilik: Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb qilinadigan resurslar tarkibida uch yildan ortiq muddatli resurslar ulushini kamida 55 foiz etib belgilash bo'yicha ilmiy asoslangan tashkiliy-iqtisodiy yondashuv ishlab chiqildi. Taklif etilgan mexanizm bankning aktiv va passivlarini boshqarish samaradorligini oshirish, likvidlik va qayta moliyalashtirish risklarini kamaytirish hamda loyiha moliyalashtirishning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishda risklarni boshqarishning integrallashgan mexanizmini takomillashtirish

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan ilmiy takliflar shuni ko'rsatdiki, investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishda risklarni kamaytirish alohida choralarni qo'llash orqali emas, balki loyiha ishtirokchilarining moliyaviy javobgarligi, kredit mablag'laridan foydalanish ustidan nazorat hamda bank resurs bazasining barqarorligini o'zaro bog'liq holda boshqarish orqali yuqori natija beradi. Shu bois muallif tomonidan loyiha moliyalashtirishning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi integrallashgan risklarni boshqarish mexanizmi ishlab chiqildi.

Taklif etilayotgan mexanizm to'rtta asosiy tarkibiy elementdan iborat bo'lib, ularning har biri loyiha moliyalashtirish jarayonida muayyan risk turini kamaytirishga xizmat qiladi.


Birinchidan, loyiha tashabbuskorining investitsiya loyihasi qiymatida kamida 25 foiz o'z mablag'lari bilan ishtirok etishi investorning moliyaviy javobgarligini oshiradi va bank zimmasidagi kredit tavakkalchiligini kamaytiradi.

Ikkinchidan, qurilish-pudrat shartnomasi qiymatining kamida 15 foizini buyurtmachi tomonidan avans tariqasida moliyalashtirish pudratchining shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishiga iqtisodiy rag'bat yaratadi hamda loyiha intizomini kuchaytiradi.

Uchinchidan, Documentary Payment mexanizmini qo'llash kredit mablag'larining faqat tasdiqlovchi hujjatlar asosida ajratilishini ta'minlaydi. Natijada mablag'larning maqsadsiz sarflanishi xavfi kamayadi, bank nazorati kuchayadi va moliyalashtirish jarayonining shaffofligi oshadi.

To'rtinchidan, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb qilinadigan resurslar tarkibida uch yildan ortiq muddatli resurslar ulushini kamida 55 foiz etib belgilash aktiv va passivlar muddatlari o'rtasidagi muvofiqlikni yaxshilaydi, likvidlik hamda qayta moliyalashtirish risklarini kamaytiradi.

Mazkur elementlarning o'zaro uyg'un holda qo'llanilishi natijasida loyiha moliyalashtirish tizimida kredit riski, likvidlik riski va operatsion risklarni kompleks boshqarish imkoniyati yaratiladi. Bu esa investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kredit portfeli sifatini yaxshilash hamda tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



3-rasm. Investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishda risklarni boshqarishning integrallashgan modeli.



Taklif etilgan integrallashgan mexanizmining asosiy ilmiy farqi shundaki, unda risklarni boshqarishning alohida instrumentlari emas, balki ularning o'zaro bog'liq tizimi ishlab chiqilgan. Mazkur modelda investor, buyurtmachi, pudratchi va tijorat bankining iqtisodiy manfaatlari yagona moliyaviy mexanizm doirasida uyg'unlashtiriladi. Natijada loyiha moliyalashtirishning har bir bosqichida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar oldindan boshqariladi va bankning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi.

Muallifning ilmiy xulosasi: Olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan integrallashgan mexanizm tijorat banklarida investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv loyiha tashabbuskorining moliyaviy javobgarligini kuchaytirish, kredit mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlash, bank resurs bazasi barqarorligini oshirish hamda risklarni kompleks boshqarish orqali investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Olib borilgan tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy takliflar tijorat banklarida investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi risklarni boshqarishning alohida vositalarini emas, balki ularning o'zaro bog'liq holdagi integrallashgan mexanizmini ishlab chiqilganligidadir.

Taklif etilgan mexanizm loyiha tashabbuskorining moliyaviy javobgarligini oshirish, kredit mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlash hamda tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning moliyaviy barqarorligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari tijorat banklarining loyiha moliyalashtirish siyosatini takomillashtirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda kredit risklarini boshqarish tizimini yanada rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Shuningdek, maqolada ishlab chiqilgan ilmiy yondashuvlardan oliy ta'lim muassasalarida "Bank ishi", "Investitsiyalarni moliyalashtirish", "Loyihaviy moliyalashtirish", "Risk-menejment" fanlarini o'qitishda ham foydalanish mumkin.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishda loyiha tashabbuskorining kamida 25 foiz o'z mablag'lari bilan ishtirok etishi hamda qurilish-pudrat shartnomasi qiymatining kamida 15 foizini buyurtmachi tomonidan avans tariqasida moliyalashtirish investorning moliyaviy javobgarligini kuchaytirish va bank zimmasidagi kredit risklarini kamaytirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, kredit mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlash maqsadida Documentary Payment mexanizmini joriy etish bank nazoratini

kuchaytiradi, moliyalashtirish jarayonining shaffofligini oshiradi va mablag'larning maqsadsiz sarflanish ehtimolini kamaytiradi.

Uchinchidan, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb qilinadigan resurslar tarkibida uch yildan ortiq muddatli resurslar ulushini kamida 55 foiz etib belgilash bankning likvidlik va qayta moliyalashtirish risklarini kamaytirish hamda loyiha moliyalashtirishning uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, maqolada ishlab chiqilgan integrallashgan risklarni boshqarish modeli loyiha tashabbuskorining moliyaviy ishtiroki, avans to'lovi, Documentary Payment mexanizmi va uzoq muddatli resurslar boshqaruvini yagona tizimga birlashtiradi. Mazkur model tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi bo'yicha statistik ma'lumotlar va yillik hisobotlar. – Toshkent, 2023–2025.
4. Yescombe E.R. Principles of Project Finance. 3rd ed. London: Academic Press, 2024. 624 p.
5. Gatti S. Project Finance in Theory and Practice: Designing, Structuring and Financing Private and Public Projects. 3rd ed. Amsterdam: Academic Press, 2022. 496 p.
6. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. 14th ed. New York: McGraw-Hill Education, 2023. 944 p.
7. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. Basel: Bank for International Settlements.
8. International Finance Corporation (IFC). Project Finance Guide. Washington, D.C.: IFC.
9. World Bank. Global Financial Development Report. Washington, D.C.: World Bank.
10. International Monetary Fund. Global Financial Stability Report. Washington, D.C.: IMF, 2024.
11. OECD. Infrastructure Financing Instruments and Incentives. Paris: OECD Publishing.
12. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // The American Economic Review. 1981. Vol. 71. No. 3. P. 393–410.
13. Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. 1976. Vol. 3. No. 4. P. 305–360.
14. Esty B.C. Modern Project Finance: A Casebook. 2nd ed. Hoboken: John Wiley & Sons.
15. International Chamber of Commerce. Uniform Customs and Practice for Documentary Credits (UCP 600). Paris: ICC.



16. Fabozzi F.J. Capital Markets: Institutions and Instruments. Boston: Pearson, 2022.
17. Damodaran A. Applied Corporate Finance. 5th ed. Hoboken: John Wiley & Sons, 2024.
- 18.18. Nevitt P.K., Fabozzi F.J. Project Financing. 9th ed. London: Euromoney Books.
19. International Journal of Project Management. Elsevier. 2022–2025-yillardagi loyiha moliyalashtirish va risk-menejmentga oid maqolalar.
20. Journal of Banking & Finance. Elsevier. 2022–2025-yillardagi loyiha moliyalashtirish va bank risklarini boshqarishga oid maqolalar.
21. Journal of Structured Finance. 2022–2025-yillardagi loyiha moliyalashtirish va strukturaviy moliyalashtirishga oid maqolalar.
22. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik sharhi. – Toshkent, 2023–2025.
23. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi. – Toshkent, 2023–2025.
24. "Asakabank" AJning muallif ilmiy takliflarini

amaliyotga joriy etish to'g'risidagi ma'lumotnomasi.

25. Abdurazakova N.S. Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha muallifning ilmiy tadqiqot materiallari.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Abdurazakova Nasiba Sultanovna Toshkent amaliy fanlar universiteti "Bank va moliya" kafedrasi katta o'qituvchisi/Абдуразакова Насиба Султановна Старший преподаватель кафедры «Банковское дело и финансы» Ташкентского университета прикладных наук/Abdurazakova Nasiba Sultanovna Senior lecturer of the Department of "Banking and Finance" of Tashkent University of Applied Sciences.

E-mail: abdurazakova.nasibahon1979@gmail.com

ORCID: 0009-0002-9556-0635



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz